

SON MUHIMMI YOKI SIFAT?**(Yangilangan Konstitutsiya yuzasidan)****Sadullayeva Farida Farxod qizi**

Termiz Davlat Universiteti Yuridik Fakulteti 2-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11183648>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangilangan Konstitutsiyamizdagi moddalar soni oshgani qanchalik tog'riligi masalasi yuzasidan fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, qonun, poydevor, taktika.

QUANTITY OR QUALITY?**(Regarding the updated Constitution)**

Abstract. In this article, opinions are expressed on the issue of the correctness of the increase in the number of articles in our updated Constitution.

Key words: Constitution, law, foundation, tactics.

ИМЕЕТ ЛИ ЗНАЧЕНИЕ КОЛИЧЕСТВО ИЛИ КАЧЕСТВО?**(По обновленной Конституции)**

Аннотация. В этой статье излагаются мнения по вопросу о том, насколько верно увеличение количества статей в нашей обновленной Конституции.

Ключевые слова: Конституция, закон, фундамент, тактика.

Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir.

Konstitutsiyamiz - bu bizning huquq va erkinliklarimizning ishonchli kafolati, millat hamjihatligi va xalq irodasini ifodalovchi qonun hujjati, mustaqil demokratik davlatimizning bosh ramzi hisoblanadi.

Konstitutsiyamiz asosida mamlakatimizda milliy qonunchilik tizimi, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari shakllandi. Bugungi kunda barcha jabhalarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyatimiz yuksalib, fuqarolarimizning dunyoqarashi tobora o'sib bormoqda.

Bularning barchasi, eng avvalo, Bosh qomusimizning hayotbaxsh kuch-qudrati natijasidir.¹

Konstitutsiya — bu davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasidan.

huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradi. Konstitutsiya barcha joriy qonunlarning asosi hisoblanadi. Konstitutsiya davlatchilik belgisidir.

Shuni takidlash kerakki, huquqiy davlat o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Buning uchun eng avvalo mamlakat hayotida Konstitutsiya va qonunlar ustuvorligi ta'minlanmogi dardkor.

Har bir mamlakat erkin va farovon jamiyat qurishga intilar ekan, o'z Konstitutsiyasida bu yo'ldagi ulug'vor maqsad va vazifalarini belgilashi kerak.

Konstitutsiyamiz 1992-yil qabul qilinganidan beri 15 marta o'zgartirildi. 2023-yil Konstitutsiyani yangilashda moddalar soni 128 tadan 155 taga, normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman Konstitutsiya 65 foizga yangilandi.

Yangilangan Konstitutsiyani ko'rib menda: "Konstitutsiyada moddalar ko'paygani yaxshimi yoki borlari mukammallashtirilgani yaxshimi?-degan savol tug'ilyapti. Menimcha modda ko'paytirgandan foyda yo'q deb o'ylayman. Sababi qonun ko'paygani bilan ijrosi ta'minlanmasa u qonunni keragi yo'q. Chunki o'sha qonunni ishlab chiqish jarayonida qancha sarf-xarajat qilinadi. Ishlamaydigan qonunga shuncha sarf-xarajat qilgandan ko'ra, o'sha pulga xalq ehtiyojining bir qismini qondirsa bo'ladi. Masalan, bolalar bog'chasi qurish, maktablarni, shifoxonalarni ta'mirlash yoki aholining muhtoj oilalariga moddiy yordam berish, og'ir kasalga chalinganlarning operatsiyasi uchun mablag' ajratish kabi.

Dunyo miqyosida olib qaraydigan bo'lsak, AQSH konstitutsiyasi eng kichik va o'zgaras konstitutsiyaga ega. AQSh Konstitutsiyasining asosiy matniga hech qanday o'zgartirish kiritilmaydi, balki matn oxiriga alohida ilova sifatida qo'shimcha kiritiladi.

AQSh Konstitutsiyasiga kiritilgan birinchi tuzatishda belgilanishiga ko'ra "Kongress so'z va matbuot erkinligini cheklovchi biron-bir qonun chiqarishi mumkin emas". AQSh Konstitutsiyasi tarixi davomida unga bor yo'g'i 26 ta tuzatish kiritilgan xalos. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ushbu tuzatishlarning har birining hajmi deyarli qonunga teng bo'lib, o'nlab moddalardan iborat bo'ladi. Dastlabki 10 ta kiritilgan tuzatishlar "Huquqlar to'g'risidagi bill" deb nomlangan.

O'zbekistonda-chi? Konstitutsiyani yangilash jarayonida nega songa e'tibor berilmagan? 128 tadan 155 taga oshirib yubormay o'zgartirishni iloji yo'qmidi?

Yangilangan Konstitutsiyamiz 27 moddaga ko'paygan. Ushbu 27 modda ichida qancha masala yotipti. Mana shu masalalarni hal etish va tartibga solish uchun yana yangi qonunlar ishlab chiqiladi. Bundan nima foyda. Kundalik hayotimizni olib qaraydigan bo'lsak qanchadan-qancha qonunlarni ijrosi ta'minlanmagan. Jamoatchilik nazoratining ahvoli achinarli tarzda. Xalq o'z taqdiriga qiziqmayapti. Insonlar o'zlarini kelajak hayotida qanday muammolar kutib turganini o'ylashmaydi.

Qonunchiligimizda songa emas sifatga e'tibor berish zarur. Har kuni yangi qonun qabul qilinganidan nima naf? Yangi qonun qabul qilguncha avvalgilarini mukammallashtirgan ma'qul.

Bu ham xalq uchun, ham davlat uchun foyda. Ishlamaydigan qonunlarni bekor qilish kerak.

Konstitutsiyani ham ha deganda o'zgartiravermasdan mukammal darajaga keltirish kerak.

Konstitutsiyani umuman o'zgarmaydigan qilib mukammal bir qolipga keltirib, mamlakatimiz qonunchiligida sinovdan o'tkazish kerak. Tavakkal qilish natijasida ko'plab yutuqlarga erishishimiz hamda muammolarni hal qilishimiz mumkin.

Avvalo, Konstitutsiyani bir qolipga solib olish uchun muayyan muddat belgilanishi kerak.

Ana shu muddat davomida xalqdan tushgan muammoli vaziyatlar haqida eng muhim va davlat kelajagi uchun naf beradigan takliflar yig'ib olinishi kerak. Yig'ilgan fikrlardan eng keraklilarini Konstitutsiya darajasiga ko'tarish hamda Konstitutsiyaning oxirgi moddasiga "Ushbu Konstitutsiya 30 yoki 40 yilgacha o'zgartirilishi mumkinmas" degan qismni qo'shish kerak.

Yuqorida: "Har bir mamlakat erkin va farovon jamiyat qurishga intilar ekan, o'z Konstitutsiyasida bu yo'ldagi ulug'vor maqsad va vazifalarini belgilamog'i kerak" -degan fikr bayon qilingandi. Davlatimiz o'z oldida turgan muammolarni hal etish borasidagi maqsad va vazifalarini qonun osti hujjatlarga qoldirmasligi kerak. Qonun hujjatlarida maqsad va vazifalarini hal qilish belgilanmas ekan, biror natijaga erishish juda mushkul.

Konstitutsiya aslida xalq ahvoli, ehtiyoji, rivojlanishiga qarab o'zgartiriladi. Konstitutsiya xalq ehtiyojlariga qarab 5-10 yil o'tmasdan o'zgartirilaversa, unda xalqda Konstitutsiyani o'zgartirish haqida noto'g'ri fikrlar shakllanib qolmaydimi?

Biz davlatimizning kelajak hayotidagi muammolarni oldindan prognoz etish qobiliyatiga ega bo'lgan insonlarni jalb etgan holda Konstitutsiyani o'zgartirishimiz kerak. Bunda faqat davlat organlari, mansabdor shaxlarning emas, balki oddiy xalqning ham ishtirok etishini ta'minlash lozim.

Rivojlangan davlatlar har xil saytlar orqali insonlarning yuksak g'oyalarini arzimagan pulga sotib olmoqda. To'g'ri bu insonlar uchun ko'p pul bo'lib tuyuladi, lekin ana shu g'oya orqasidan qancha milliardlab foydani g'oya mualliflari emas, o'sha davlatlar oladi. Biz istiqbolli g'oyalarni davlat miqyosidan chetga chiqishini oldini olishimiz kerak. Davlat o'z xalqidan g'oyalarni sotib olsin. Boshqa davlatlar rivojlanganidan bizga hech qanday naf yo'q, biz ular rivojlangani sari ortda qolaveramiz. Shuning uchun ham insonlardagi yuksak intellektual g'oyalarni yig'ib olib, amaliyotga tatbiq etishimiz kerak.

"O'yehi o'yini o'ylaguncha, tavakkalchi ishini bitiradi"- deyishlari bejiz emas. Tavakkal eng yuqori natijalarga sabab bo'ladi. Biz davlatimiz kelajagi yo'lida o'ylagan barcha orzu-istaklarimizga Konstitutsiya bilan birga erishishimiz kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, biz erkin va farovon jamiyat qurishga intilyapmizmi, demak Konstitutsiyada mana shu intilishga qaratilgan ulug'vor maqsad va vazifalarni belgilashimiz, lekin buni moddalarni ko'paytirish evaziga emas, balki borlarini mukammallashtirib, bo'shliqni to'ldirgan holatda amalga oshirishimiz darkor.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi.

Foydalanilgan internet saytlari

1. <https://constitution.uz>
2. <https://nhrc.uz>
3. <https://parliament.gov.uz>
4. <https://uzlidep.uz>